



## XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 16-sentabr

VII-12-97-11-163-K/25

Farg'ona tumani

### **“Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashining 2025-yil 24-iyundagi “Farg'ona tuman “Oqbilol” mahalla fuqarolari yig‘ini hududida “Yashil jamoat parki” tashkil etish to‘g‘risida”gi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida**

Farg'ona tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i U.Toshbekovning 2025-yil 9-sentyabrdagi xulosasida “Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashining 2025-yil 28-iyundagi “Farg'ona tumanı “Oqbilol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Yashil jamoat parki” tashkil etish to‘g‘risida”gi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qarorining 2-bandida “Farg'ona tumanı “Oqbilol” mahalla fuqarolari yig‘ini hududida mavjud bo‘lgan tuman zaxirasidagi 0.5 hektar yer maydonida “Yashil jamoat parki” tashkil etishga rozilik berilsin”, deya tasdiqlangan.

Hozirgi kunda, “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror talablari asosida loyihalash uchun zlchash ishlari olib borish jarayonida “Yashil jamoat parki” tashkil etish uchun ajratilgan 0.5 hektar yer maydonida mavjud bo‘lgan uyali aloqa antennasi, mahalla hududidan o‘tuvchi yo‘l hamda fuqarolar yashash xonadoni bilan oraliq masofalarni hisobga olinganida foydali aniqlangan yer maydoni 0,2 hektarni tashkil qilgan.

“Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashining 2025-yil 28-iyundagi “Farg'ona tumanı “Oqbilol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Yashil jamoat parki” tashkil etish to‘g‘risida”gi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qarorining 2-bandida “Farg'ona tumanı “Oqbilol” mahalla fuqarolari yig‘ini hududida mavjud bo‘lgan tuman zaxirasidagi 0.5 hektar yer maydonini 0,2 hektar yer maydoniga o‘zgartirishda amaliy yordam so‘ragan.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** Farg‘ona tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i U.Toshbekovning 2025-yil 9-sentyabrdagi xulosasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

**2.** “Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 28-iyundagi “Farg‘ona tumani “Oqbilol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Yashil jamoat parki” tashkil etish to‘g‘risida”gi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qarorining 2-bandida “Farg‘ona tumani “Oqbilol” mahalla fuqarolari yig‘ini hududida mavjud bo‘lgan tuman zaxirasidagi 0.5 hektar yer maydonida “Yashil jamoat parki” tashkil etishga rozilik berilsin” so‘zlariga ““Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 28-iyundagi “Farg‘ona tumani “Oqbilol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Yashil jamoat parki” tashkil etish to‘g‘risida”gi VII-9-58-11-163-K/25-sonli qarorining 2-bandida “Farg‘ona tumani “Oqbilol” mahalla fuqarolari yig‘ini hududida mavjud bo‘lgan tuman zaxirasidagi **0.2 hektar** yer maydonida “Yashil jamoat parki” tashkil etishga rozilik berilsin” degan so‘zlar bilan o‘zgartirilsin.

**3.** Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya vako‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Qodirxonov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (Toshbekov)lar tegishli mas’ullar bilan birgalikda Oqbilol mahallasi hududidan “Yashil jamoat parki” loyihasi uchun ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanishga, loyihani o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishiga mas’ul etib belgilansin.

**4.** Tuman hokimligi axborot xizmati (Ergashev), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (Toshbekov) bilan birgalikda “ovozi berish” jarayonida “g‘olib” deb topilgan taklif va undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin.

**5.** Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish, Xalq deputatlari tumani Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya (Makarov) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (Abduraximov, Qodirxonov) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH